

22. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2018-2021. Toshkent – 2022. www.stat.uz
23. Бурханов, А. (2023). QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHINI RESURS TEJOVCHI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH–YANGI IQTISODIY MUNOSABATLAR MEZONI. Экономика и образование, 24(2), 284-289.
24. Hadjimuradovich, B.A., Nurilla O'g'li, O.J., & Farkhod O'g'li, A.D. (2022). METHODOLOGY OF REGULATING AND DEVELOPING PRODUCTION AND ECONOMIC RELATIONS IN AGRICULTURE. World Economics and Finance Bulletin, 15, 139-147.
25. Hadjimuradovich, B. A., Turdikulovich, S. O., Musurmanovich, U. J., Uktam, K. J., Abulhayevich, O. R., Abdalazizovich, A. A., ... & Raushanovich, U. O. (2020). Widespread introduction of market mechanisms in developing cooperative relations in agriculture in Uzbekistan. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(8), 1612-1620.
26. Burkhanov, A.H., Abduvakhidov, A.A., & Toshboev, B.B. (2019). Directions of Organizing the Activities of Clusters in Uzbekistan.
27. Khadzhimuradovich, B. A. (2023, April). FORMATION OF NEW ECONOMIC RELATIONS IS THE KEY TO STABLE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 4, pp. 9-15).
28. Abduvokhidov, A.A., Khodjimuratovich, A.B., Toshboev, B.B., & Abdurahmonovich, Y.O. (2021). Mechanisms of import substitution policy in the region. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(12), 45-59.
29. Бурханов, А.Х., & Шоев, А.Х. (2021). ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-СТРУКТУРНЫХ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ КООПЕРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ. In Современные методы, модели и технологии управления социально-экономическими системами (pp. 78-85).
30. Burkhanov, A.H., & Abduvakhidov, A.A. (2019). The main Directions of Agrarian Policy in Uzbekistan.



XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHGA YARATILGAN MUHIT VA UNING JOZIBADORLIK DARAJASI

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss4/a6h

Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li –
Toshkent moliya instituti, Baholash ishi va
investitsiyalar kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi, PhD

Annotatsiya. Maqolada xorijiy investitsiyalarni jalb etishga yaratilgan muhit va uning jozibadorlik darajasi ko'rib chiqildi. Investitsiyaviy jozibadorlikni baholashda xalqaro reyting va indekslar o'rganildi. Yalpi ichki mahsulot va xorijiy investitsiya hajmlarining o'zgarish tendensiyasi tahlil qilib chiqilgan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiya, YaIM, investitsiyaviy jozibadorlik, xalqaro reyting va indekslar, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar.

СРЕДА, СОЗДАННАЯ ДЛЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ, И ЕЕ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНЫЙ УРОВЕНЬ

Хошимов Жахонгир Равшанбек угли –
Независимый исследователь, PhD кафедры
«Оценочное дело и инвестиции»
Ташкентского финансового института

Аннотация. В статье исследуется среда, созданная для привлечения иностранных инвестиций, и уровень ее привлекательности. При оценке инвестиционной привлекательности изучались международные рейтинги и индексы. Проанализирована тенденция изменения объема валового внутреннего продукта и иностранных инвестиций. Также разработаны предложения и рекомендации по привлечению иностранных инвестиций.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, ВВП, инвестиционная международные рейтинги и индексы, привлекательность, предприятие с иностранными инвестициями.

ENVIRONMENT CREATED FOR ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS AND ITS ATTRACTIVE LEVEL

Khoshimov Jahongir Ravshanbek ugli -
Tashkent Financial Institute, PhD the Department
independent researcher "Appraisal and Investments"

Abstract. The article considered the environment created for attracting foreign investments and its level of attractiveness. International rating and indices were studied in the assessment of investment attractiveness. The trend of changes in the volume of gross domestic product and foreign investment has been analyzed. Proposals and recommendations for attracting foreign investments have also been developed.

Keywords: foreign investment, GDP, investment attractiveness, international ratings and indices, an enterprise with foreign investment.

Kirish. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasining (UNCTAD) yangi ma'ruzasida qayd etilishicha, "2021-yilda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning global oqimi 1,58 trln. AQSh dollarini tashkil etdi va bu 2020-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 64 foizga ko'pdir. Biroq 2022-yilda xalqaro biznes va xalqaro investitsiyalar uchun global muhit keskin o'zgardi. Jahonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, xorijiy investorlar uchun moliyaviy imtiyozlarni joriy qilish va maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish va xalqaro investitsiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda".

O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy sarmoyalar ko'lamini yanada oshirish, innovatsion texnika-texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ni yo'lga qo'yish asosida intensiv rivojlanishni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish, mamlakatning xalqaro reyting va indekslarda munosib o'rin egallashlarida investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qabul qilindi va bu bir qator strategik hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Jumladan, "...kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish" [1] zarurligi, "Yangi yildan boshlab har bir hokim o'z tumaniga 40-50 million dollar xususiy investitsiyalarni olib kelishi kerak... Iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko'paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilash" [2] lozimligi qayd etib o'tildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha bugungi kunda qator xorijiy iqtisodchi olimlar izlanishlar olib borgan. Biz ayrim xorijiy iqtisodchi olimlar bergan ta'riflarni ko'rib chiqamiz. Jumladan: C.Liyebeth, M.Miyet, S.Jo ilmiy izlanishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar fikricha, o'tish davri mamlakatlarida iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tizimini takomillashtirishning muhim omili hisoblanadi. To'g'ridan to'g'ri kapitalni to'plash va texnologik nou-xau orqali milliy korxonalariga texnologiyalar va bilimlarning jalb qilinishi iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlaydi[3]. P.Mihayela, A.Vaqar, X.Helian tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning institutsional mexanizmi tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalariga muvofiq, mamlakat iqtisodiyotidagi institutsional sifat o'zgarishlarining to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi [4]. V.D.Andrianov ilmiy tadqiqotlarida milliy iqtisodiyot investitsion

salohiyatining nazariy asoslari o'rganilgan bo'lib, investitsiya salohiyati doirasidagi konsepsiyalar nazariy jihatdan umumlashtirilgan, uni oshirish uchun moliyaviy imtiyozlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan [5].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlar bergan ta'riflarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular quyidagilar iborat. N.G'.Karimov xorijiy investitsion korxonalar uchun makroiqtisodiy, qonunchilik va ma'muriy shart-sharoitlar va imkoniyatlarni hisobga olgan holda barqaror soliq qonunchiligi tizimini joriy etish hamda iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish dasturini shakllantirish bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etiladi[6]. U.S.Nodirxanov o'zining ilmiy tadqiqotlari orqali mintaqaviy darajada investitsiya faolligini oshirish usullari, mintaqalarda investitsiya muhitini baholash, imtiyozli investitsiya loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi qulay investitsiya muhitini shakllantirish jarayonlarini o'rganadi[7]. D.G'ozibekov, E.Nosirov ilmiy izlanishlarida investitsion salohiyatni oshirishda soliq yukini kamaytirish, fond bozorlari o'rnini keskin oshirish, xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish tadbirlarini samarali amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etiladi [8]. J.R.Hoshimov tadqiqotida xorijiy investitsiyalarga quyidagicha ta'rif bergan: "Subyektlar tomonidan nisbatan yuqori darajada foyda olish maqsadida bir mamlakat hududidan mutlaq boshqa mamlakat hududiga muayyan muddatga joylashtiriladigan turli ko'rinishdagi boyliklarga xorijiy investitsiyalar deyiladi"[9]. F.U.Umarov tadqiqotlarida iqtisodiyotning tegishli tarmoq va sohalariga xorijiy investitsiya jalb qilish ko'lamini kengaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi[10]. A.Burxanov tadqiqotlari orqali hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy-nazariy jihatlari o'rganilib, hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning muammoli jihatlari asoslangan hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan [11].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, taqqoslash, omilli tahlil, modellashtirish, korrelyatsion tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Milliy iqtisodiyotning shakllanish va rivojlanish yo'llarida mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida kata tajriba to'plandi. Xorijiy iqtisodiy subyektlar bilan hamkorlik qilish, o'zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish tizimi takomillashdi. Davlat investitsiya siyosati yillar davomida shakllanib, maqsadli sanoat dasturlarining salmog'i ortib bormoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratishning barcha imkoniyatlaridan foydala-

nishga harakat qilinmoqda. Buni quyidagilar bilan izohlashimiz mumkin:

– siyosiy barqarorlik har qanday mamlakatning qulay investitsiya muhitini, birinchi navbatda, uning siyosiy barqarorligini belgilab beradi. Hozirgi paytda O‘zbekiston siyosiy barqaror davlatlardan biridir. Xuddi mana shu omil investorlarning uzoq muddatli investitsiya rejalarini amalga oshirishlariga imkon beradi;


– boy tabiiy xomashyo zaxiralari mavjudligi bo‘yicha dunyoda O‘zbekiston kabi turli xil boy tabiiy xomashyo zaxiralarga ega davlatlar ko‘p emas. Biroq aytish kerakki, bu boyliklar konlarining ko‘pchiligi hali ishga solinmagan;

– xorijiy investitsiyalarning huquqiy kafolatlanganligi, O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalar faoliyati bilan bog‘liq 30 dan ziyod qonun va Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari huquqiy shart-sharoitning asosini tashkil etadi.

Bizning fikrimizcha, xorijiy investitsiyalarning jadal kirib kelishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan omillarga quyidagilar kiradi: mamlakatning xalqaro den-

giz yo‘llariga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqa olmasligi, yirik va rivojlangan bozorlardan uzoqligi; aloqa va axborot almashish tizmining yaxshi rivojlanmaganligi, xalqaro talab darajasida takomillashmaganligi; milliy valyuta qadrligining pastligi va inflatsiya sur‘atlarining yuqoriligi; huquqiy asoslarning va me‘yoriy hujjatlar tizmining jahon andozalariga muvofiq emasligi, erkin iqtisodiyot va bozor munosabatlarning tamoyillarga to‘la mos emasligi; fond bozori, xususan, birlamchi va ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi; bozor infratuzilmasi boshqa tuzilmalarining takomillashmaganligi; O‘zbekistonning mavjud investitsiya muhiti to‘g‘risida xorijiy sheriklarda yetarli va to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lish imkoniyatining torligi va hokazo.

Mamlakat hududiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nuqtayi nazaridan investitsiyaviy jozibadorlikni baholashda xalqaro reyting va indekslarning ko‘rsatkichlari muhim ahamiyatga ega (1-rasm).



1-rasm. Investitsiyaviy jozibadorlikni baholashda xalqaro reyting va indekslar [12]


Ushbu xalqaro reyting va indekslar natijalari xalqaro darajada mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini ma‘lum darajada ko‘rsatib beradi va hududga xorijiy investitsiyalar oqimini faollashtiradi. Aksariyat salohiyatli chet el investorlari mamlakat yoki uning hududlariga investitsiya kiritishlarida mazkur reyting va indekslarning natijalariga qarab ham investitsion qarorlar qabul qilishadi. Shu nuqtayi nazardan mamlakatning xalqaro reyting va indekslarda o‘rni tobora yaxshilanib borishi mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda hududlarda investitsiyaviy faollikni ta‘minlash imkonini yaratadi.

Mamlakatda investitsion faoliyatining taraqqiyoti, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko‘lami, aksariyat hollarda, ular salmog‘ining darajasi bilan izohlashga harakat qilinadi. Shunga mos ravishda, agar tegishli salmoqni ifodalovchi ko‘rsatkich darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning roli ham yuqori va aksincha xulosaga kelinadi. Ana shunday yondashuvga tayangan holda xorijiy investitsiyalarni tavsiflovchi ma‘lumotlar quyidagi 2-rasmga keltirilgan.

2-rasm ma‘lumotlarini tahlil qilish asosida quyidagi bir necha muhim xulosalarni chiqarish mumkin: 2016-2022-yillar davomida mamlakatimizda YaIM hajmining umumiy summasi barcha

omillarning ta'siri ostida (shu jumladan, inflatsiya, konvertatsiya, koronavirus pandemiyasi) 0,8 marta kamaygan; xuddi shu davrda xorijiy investitsiyalar umumiy summasining o'sish darajasi esa barcha omillar hisobidan (jumladan, inflatsiya, konvertatsiya, koronavirus pandemiyasi) 1,1 marta ortgan.

Demak, ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan davr mobaynida barcha omillar hisobidan xorijiy investitsiyalarning o'sish sur'atlari YaIM hajmining o'sish sur'atlaridan ancha yuqori bo'lgan va bu ko'rsatkichning darajasi 3,37 ga tengdir.



2-rasm. Yalpi ichki mahsulot va xorijiy investitsiya hajmlarining o'zgarish tendensiyasi (mlrd. AQSh dollari hisobida) [13]

2021-2022-yillarda ko'rishimiz mumkinki, ushbu yillar davomida xorijiy investitsiyalar o'sish hajmi YaIMga nisbatan 13,6 foizga, ya'ni sezilarli darajada oshganiga guvohi bo'lishimiz mumkin. Bunga sabab mamlakatimizda qulay investitsiya muhiti yaratilganligi bois ushbu natijalarga erishilgan. Shuningdek, ushbu natijalarga erishishda pandemiyaning respublika va hamkor mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini bartaraf etishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat tomonidan o'z vaqtida ko'rilayotgan chora-tadbirlarning muhim ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlab o'tmoq lozim, deb hisoblaymiz.

Umumiy xulosa shundan iboratki, 2016-2022-yillar davomida mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning roli o'sib borganligi bilan tavsiflanadi. Bu esa milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, mehnat unumdorligini oshirish, zamonaviy boshqaruv tajribalarini o'zlashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish nuqtayi nazaridan ijobiy holatni namoyon qiladi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va O'zbekistonning investitsiya jozibadorligini oshirish bo'yicha bugungi kunda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur, deb hisoblaymiz [14]:

Birinchidan, iqtisodiy o'sishning bir maromdagi yuqori va barqaror sur'atlarini saqlab qolish uchun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh, bank tizimi aktivlarining katta qismi

xususiy investorlar qo'lida bo'lgan modelini shakllantirish zarur.

Ikkinchidan, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lgan infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalarning jadal o'sishini ta'minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsiyaviy faoliyatni rag'batlantirishni ham faol tarzda olib borish lozim.

Uchinchidan, raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik to'siqlar va cheklovlarni to'liq bartaraf etish uchun investorlar va davlat o'rtasidagi munosabatlar optimallashtirilmoqda. Shaffoflikni maksimal darajada ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish uchun xorijiy investorlarning murojaatlari va so'rovlarini bilan ishlashni tashkil etish sifati yaxshilanmoqda.

To'rtinchidan, ishchi kuchi va kapitalning iqtisodiyotning qonuniy sektorlaridan yashirin iqtisodiyotga oqib ketishiga olib keladigan tranzaksiya xarajatlarining kamayishi kuzatilmoqda.

Beshinchidan, kelgusida texnologik yutuqlarga erishish nuqtasiga aylanishi va keyingi 20-30 yil davomida mamlakat ishlab chiqarish quvvatlarining rivojlanishi uchun zamin yaratishi mumkin bo'lgan O'zbekistonning eng istiqbolli sohalariga yo'naltiril-

gan investitsiya siyosati strategiyasi ishlab chiqilmoqda.

Xulosa va takliflar. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishga yaratilgan muhit va uning jozibadorlik darajasi bo'yicha bir necha xulosalarga kelindi, ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Yuqori qo'shilgan qiymatga ega eksportbop va import o'rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni barpo etish uchun to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

2. Xorijiy va mahalliy investorlarning qiymati 200 milliard so'mdan oshadigan investitsiya loyihalarining zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan bog'liq xarajatlari 20 foiz davlat budjeti tomonidan to'lab berilishi lozim.

3. 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha hajmdagi investitsiya kiritilganda, 4 yil muddatga imtiyoz berish zarur.

4. O'zbekistonda investitsiya muhiti haqida chet elliklarga to'laroq va aniqroq ma'lumot berish tizimini shakllantirish va rivojlantirish.

5. Qo'shma korxonalar va xorijiy kapital ishtirokidagi boshqa turdagi tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazishdagi to'siqlarni butunlay olib tashlash.

6. Soliq va bojxona tizimlarida aniq va barqaror siyosatni rivojlantirish.

7. Milliy va xorijiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish.

8. Internet tarmoqlarida respublikamizdagi investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar va imtiyozlar haqida kengroq va uzluksiz ma'lumot berishni tashkil etish.

9. Investitsiya muhiti baholashdagi chet el tajribasidan kelib chiqib, bunday faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar faoliyatini tashkil etishni yo'lga qo'yish.

10. Xorijiy investorlarga turli moliyaviy-iqtisodiy, tashkiliy ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimini takomillashtirish zarur.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 20.12.2022.

3. Liesbeth Colen, Miet Maertens and Jo Swinnen. Foreign direct investment as an engine for economic growth and human development: A review of the arguments and empirical evidence. January 2009 DOI: 10.4324/9780203076880.

4. Mihaela Peres, Waqar Ameer & Helian Xu (2018) The impact of institutional quality on foreign direct investment inflows: evidence for developed and developing countries, Economic Research-Ekonomika Istraživanja, 31:1, 626-644.

5. Андрианов В.Д. Россия: экономический и инвестиционный потенциал. – М.: ОАО Издательство «Экономика», 1999. – 662 с.

6. Karimov N.G'. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 240 b.

7. Нодирханов У.С. Прямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт проблемы, перспективы роста. – Т.: Fan va texnologiya, 2011. – 184 b.

8. G'ozibekov D., Nosirov E. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 92 b.

9. Hoshimov J.R. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TMI, 2022. – 14 b.

10. Umarov F.U. Innovatsion investitsiya faol tadbirkorlikning muhim omili. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. 1-son, yanvar-fevral, 2018-yil.

11. Burxanov A. Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish – milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning asosiy omili. // Biznes-Ekspert, 2018-yil. 10-son, 7-13-bet.

12. Muallif ishlanmasi.

13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

14. <https://miit.uz/uz/menu/mery-po-privlecheniju-inostrannyh-investitsij-i-uluchsheniju-investitsionnoj-privlekatelnosti-uzbekistana>